

Даuletбаева Дилбар Дастановна

Докторант 3 курса

Кафедра «Экономическая и социальная география»

Каракалпакский государственный университет им. Бердаха

Республика Каракалпакстан

ГЕНЕТИЧЕСКАЯ ТИПОЛОГИЯ ГОРОДСКИХ АДРЕСА

РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАГИСТАН.

Аннотация: Изучены периоды получения городов Республики Каракалпакстан статуса города, основные факторы развития города, области специализации. Формирование и развитие городских поселений на изучаемой территории разбито на периоды и приведено в четкую систему на основе таблицы. Генетико-функциональную классификацию городских поселений вы можете увидеть в этой таблице.

Ключевые слова: город, урбанизация, типология городов, функциональная типология, генетическая типология, типология, геоурбанизм, ресурсные города.

Dauletbaeva Dilbar Dastanovna

3rd year basic doctorate

"Economic and social geography" department

Karakalpak State University named after Berdak

GENETIC TYPOLOGY OF URBAN ADDRESSES OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAGISTAN.

Annotation: The periods of obtaining the city status of the cities of the Republic of Karakalpakistan, the main factors in their emergence, and the areas of specialization were studied. The formation and development of urban settlements

in the studied area is divided into periods and put into a precise system based on the table. You can see the genetic-functional classification of urban settlements that appeared in this table.

Key words: *city, urbanization, typology of cities, functional typology, genetic typology, typology, geourbanism, resource cities.*

Dauletbayeva Dilbar Dastanovna
3-kurs tayanch doktarani
«Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya» kafedrasи
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAHAR MANZILGOHLARINING GENETIK TIPOLOGIYASI.

Annotation: Qoraqalpog'iston Respublikasi shaharlarining shahar maqomini olish davrlari, kelip chiqishidagi asosiy omillar, ixtisoslik yo'naliishlari o'r ganilgan. Shahar manzilgohlarining o'r ganilayotgan hududda shakllanishi va rivojlanishi davrlarga bo'linip, jadval asosida aniq tizimga solingan. Bu jadvalda paydo bo'lган shahar manzilgohlarining genetik-funksinal tasnifini ko'rishingizga bo'ladi.

Kalit so'zlar: shahar, urbanizatsiya, shaharlar tipologiyasi, funktsional tipologiya, genetik tipologiya, tipologizatsiya, geourbanizm, resurs shaharlar.

Kirish. Har qanday yangi ilimiylardan tadqiqodni olib borishda avvalo ilimiylardan mavzusining obyekti tanlanar ekan, uning kelip chiqish asoslari va qonuniyatlarini o'r ganish asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. O'r ganilayotgan obyektning asosiy xususiyatlarini aniqlashga asoslangan murakkab o'r ganish usuli – tipologiya deb ataladi. [1]. Ilimiylardan izlanishlarning har qaysisida tipologizatsiya jarayoni muhim hisoblanib, bundan mavzuning natijalari yaqqol ko'rindi va aniq tasavvur uyg'otadi.

Umumiy etip olganda tipologiya – bu turli xil o'r ganish obyektlarini

ularning umumiyligi yoki o'xshash jixatlari va belgilarini aniqlash, ushbu yaqinlik birligini hisobga olish orqali o'rganish usuli bo'lib, olingan natijalarni ba'zi sinflarga (guruhlarga, turlarga) guruhlashdir. Shahar aholi punktlarini tipologiyalashtirganda - belgilangan tadqiqot vazifalari asosida amalga oshirilishi kerak. Bu vazifalar bir-biriga yaqin va o'zaro bog'liq, ammo bir xil emas va barchasi ham aholi punktlarini tadqiq qilishda muhim o'rinni egallaydi.

Geografiyada shahar aholi punktlarini tasniflashning quyidagi yo'nalishlari qo'llaniladi:

- 1) kattaligi bo'yicha (aholi soni);
- 2) funktsiyalari (shahar manzilgohlarining vazifalari) bo'yicha;
- 3) hududiy mehnat taqsimotida ishtirok etish darajasi;
- 4) kelib chiqishi (genetik tasnifi);
- 5) shahar manzilgohlarining iqtisodiy geografik joylashuv (IGJ)xususiyatlari.

[2]

Ushbu maqolada biz yuqoridagi iliniy kriteriyalarni inobatga olgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar manzilgohlarining tarixiy kelib chiqish ya'niy genetik tipologiyasi bo'yicha tasniflashni mavzumizning asosiyligi **maqsadi** etib oldik.

O'rganilish darajasi: Shaharlarni tipologiya usuli yordamida tadqiq etish dastlab 1891-yil –**F.Ratsel**, 1910-yil **Semyonov –Tyanshanskiy**, keyinchalik **C.Garris, V.Konstantinov, B.Xorev** va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Ilk tipologiyalar sodda va shaharlar mexanik tarzda aholi soni bo'yicha ajratib tasniflangan. 1960-yillarda matematik modellashtirish, ayniqsa, kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan ko'plab belgilarni (60 ga yaqin) qamrab oluvchi guruhlashtirish keng rivojlandi.

Buyuk urbanolog olim **G.Lappo** tasniflashni tipologiyaning boshlanishi deb hisoblaydi [3, 40 bet]. Agar tasniflash biror miqdoriy ko'rsatgichga asoslansa (E.Alayev bo'yicha), tipologiya bir qancha sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Tipologiya shaharlar haqidagi bilimlarni ham umumlashtiradi ham

chuqurlashtiradi. [4., 39-bet]

Taniqli rus olimi **N. N. Baranskiy** (1956-yilda) “Shaharlар tipologiyasi shaharlarni o’rganishda yuzaga keladigan ikkita asosiy umumiylar masalalardan biridir”, - deb hisoblagan. **N. N. Baranskiy** genetik tipologiyaning ahamiyatini yuqori baholaydi va “... ammo u shaharlarning kelib chiqish davrini bildiradi, kelgusi rivojlanish yo’nalishlarini ko’rsatmaydi” – deydi. [5., 452-bet]

Aholi yashash punktining o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun shahar aholi punktlarining tipologiyasi zarur. Bu ularning har birida rivojlanishning umumiylar qonuniyatları tomonidan yaratilgan eng muhimini topishga imkon beradi.

Genetik yondashuv bilan shaharlар paydo bo’lish vaqt va sabablari, shuningdek, turli tarixiy xususiyatlarning zamonaviy joylashuvi va tashqi ko’rinishida saqlanib qolish darajasi bo’yicha bo’linadi. **E. N. Pertsik** yozganidek, shaharning genetik turi sintetik tushunchadir. U rivojlanish jarayonida sifat jihatidan ma’lum bir shahar turini shakllantirishni belgilaydigan xususiyatlar to’plamini o’z ichiga oladi. Genetik xususiyatlarni tanlash tasniflash amalga oshiriladigan vazifaga bo’ysunadi [6, 246-247-betlar]. Ushbu yondashuv tarixiy usulga eng yaqin bo’lib, uni tadqiqot yo’nalishiga muvofiq rivojlantirish uchun asos sifatida olish mumkin.

Shunday qilib, **genetik tipologiya**, hatto nisbatan qisqa vaqt ichida ham, mintaqadagi urbogenezning dinamikasi va o’ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Biroq, uni shaharning asosiy xususiyatlari va shakllantirish funksiyalari bilan birgalikda ko’rib chiqilishi kerak.

Material va metodlar. Har qanday mintaqada shaharlarning tashkil topishi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy jarayonlar natijasi bo’lsa, ulaming rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishida o’z ifodasini topadi. Mintaqalarda shaharlар to’ri va tizimini shakllanish nuqfai nazaridan qaralganda, u 1989-yilga nisbatan deyarli o’zgarmagan. Mustaqillik yillarda faqatgina shaharchalar sonida o’zgarishlar kuzatildi (11tadan 26 taga ko’paygan).

2023-yil oxiri ma'lumotiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasida 12 ta shahar va 26 ta shaharchalar mavjud bo'lib, umumiyliz urbanizatsiya darajasi 49,0 foizni tashkil etadi (1-jadval). Ulardan faqatgina Nukus shahrigina O'zbekistonning 18 katta shaharlari qatoriga kiradi (aholisi 334,6 ming kishi. 2023). Aholi soni nisbatan boshqa shaharlardan ko'proq bo'lgan Beruniy, To'rtko'l, Xo'jayli, Taxiatosh, Chimboy shaharlari Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar aholisi ulushining 32,8 foizini tashkil etadi.

Tahlillar shahar aholisining son jihatdan ortib borishini, birinchidan, Respublikaning ma'muriy-hududiy tizimidagi o'zgarishlar, ya'ni yangi tashkil etilgan tuman markazlariga shahar maqomining berilishi, ikkinchidan, Respublikaga chetdan kelayotgan migrantlaming asosan shaharlarda to'planishini ko'rsatmoqda. Umuman olganda, Qoraqalpog'iston Respublikasining urbanizatsiya darajasi O'zbekiston Respublikasining o'rtacha ko'rsatkichidan pastligi yaqqol ko'rindi va ko'rsatkichlar saqlanip kelmoqda.

2009-yilda urbanistik o'zgarishlar tufayli viloyatning 11ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berilgan. Natijada, umumiyliz urbanizatsiya darajasi 2005-yildagi 48,7 foizga teng bo'lgani holda, u birdaniga 50,1 foizga ortdi. Yangi shaharchalar, ayniqsa To'rtko'l, Amudaryo, tumanlarida ko'p. To'rtko'lda bunday maqomga 5 ta, Amudaryoda 3, Beruniyda, Taxiatosh, Chimboy tumanlarida 1 tadan bunyod etildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar manzilgohlar soni va urbanizatsiya darajasi 2010-jilgacha bo'lgan davrda muntazam ortib borib, so'ng hozirgi kunga kelib sekin pasayib borishi kuzatilmoqda. Chunonchi, 1970-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining atigi 11ta shahar joylarida 33,5 foiz shahar aholisi yashagan bo'lsa, 1989-yilga kelib jami 23ta shahar manzilgohlarida 48,1 foizga yoki 583,7 ming kishiga ortdi. 2010-yilda 26ta shahar joylarida 50,1 foiz shahar aholisi yashagan bo'lsa, 2023-yilga kelib jami shu shahar manzilgohlarida 49,0 foizga yoki **967,3** ming kishiga yetti. (1-jadval).

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar manzilgohlari va urbanizatsiya darajasining dinamikasi

Qoraqalpog'iston Respublikasi	Yillar								
	1939	1959	1970	1979	1989	2005	2009	2015	2023
Urbanizatsiya darjası (%da)	12,2	27,2	33,5	41,9	48,1	48,7	51,7	49,5	49,0
Shaharlar	3	4	7	9	12	12	12	12	12
Shaharchalar	-	1	4	7	11	13	26	26	26
Jami:	3	5	11	16	23	25	38	38	38

Jadval: Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Shaharlarning shakllanishi qadimgi davrlarda savdo-sotiq va hunarmandchilik asosida vujudga kelgan. Keyinroq bunga eng ko'p sanoat va transportning rivojlanishi sababchi bo'lgan. Qazilma boylik konlari o'zlastirish asosida shakllangan shaharlarni ilmiy adabiyotlarga «resurs shaharlar» deb yuritiladi. Bunday shaharlar, odatda, o'z atrofida qishloq joylar bilan kam aloqada bo'ladı.

Shaharlar kelib chiqishiga qarab «yangi» va «eski» shaharlar bo'lishi mumkin. Lekin bu tushunchalar nisbiy aytiladigan tushunchalardir. Sababi, biz yaqinga qadar sobiq uyushma davrida vujudga kelgan shaharlarning barchasini «yangi shaharlar» guruhiga kiritadigan edik. Hozir esa yangi shaharlarni «mustaqillik davri» bilan belgilash to'g'ridir.

Shaharlarning kelib chiqishi, ularning genetik xususiyatlarini o'rghanish tarixiy yondoshuvni talab qiladi. Mana shunday tarixiy tahlil asosida ularning o'tmishi va hozirgi ahvoli baholanadi. Bu o'z navbatida, shaharlarning kelajagini bashorat qilish (prognozlash) uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharlarining genetik tipologiyasi.

No	Qoraqalpog'iston Respublikasida Shahar manzilgohlarining rivojlanishining tariixiy bosqichlari	Shahar manzilgohlarining shakllanishidagi asosiy ixtisoslik tarmog'i	Shahar nomlari va shahar maqomini olgan yili	Shaharlar soni	Umumiyy shahar manzilgohlar ining ulushi(%)da

1.	1-davr. yildan 1926- yilgacha davr	Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti iqtisodiy siyosiy markaz	No'kis (1932)	3	25%
		Tuman markazlari	Xo'jeli (1926), Shimbay (1926)		
2.	2- davr. yildan 1939- yilgacha bo'lган davr	IES (energetika)	Taqiyatas (1953)	1	8,3%
3.	3- davr. 1959- 1990-yillar oraligídagi davr	Yirik hududiy ishlab chiqarish kompleksi	Beruniy (1962), Moynaq (1963), Qońirat (1969)	8	66,7%
		Tuman markazlari	Mańǵıt (1973), Xalqabad (1986), Tórtkúl (1973), Shomanay (1983), Bostan (1983)		
	Jami:			12	100%

Keste: Avtor tarafidan tuzilgan.

1- davr ya'ni 1926-yildan 1939-yilgacha Qoraqalpog'iston hududida ilk shahar maqomini olgan shahar manzilgohlari vujudga keldi, ya'ni **Xo'jeli (1926-yil)**, **Shimbay (1926- yil)** va **Nókis (1932- yil)** shaharlariga berildi. Asosan shaharlar Respublika iqtisodiy rivojida asosiy va ahamiyatli o'rinni egallab, tuman markazlari va poytaxt shahar sifatida yuzaga keldi.

Ushbu davr oralig'ida Qoraqalpog'iston Respublikasining shahar aholisi qishloq aholisiga nisbatan juda tez o'sganligini ta'kidlashimiz kerak. 1926-yilda respublikaning shahar manzilgohlarida 17,0 ming kishi bo'lib, shahar aholisining umumiy aholisidan ulushi atigi 5,1 foizni tashkil etgan.

Qoraqalpog'istonning qishloq xo'jaligi tarmoqlariga ixtisoslashganligi sababli unda yashovchi aholining ko'pchilagini qishloq aholisi tashkil etip kelgan. 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish bo'yicha Qoraqalpog'istonning qishloq aholisi 94%ni, ya'ni 314 ming kishini tashkil etgan. 1926-yildan 1939-yilgacha qishloq aholisi 103,9 ming kishiga ko'paygan. Bu davrda qishloq aholisining salmog'i 87,8% foizga kamaygan, o'rtacha yillik o'sish 2,2% foizga teng bo'lган.

1932-yil 20-martda Qoraqalpoqiston avtonom viloyati Qoraqalpoqiston avtonom Respublikasiga aylantirildi va 1936-yildan boshlab O'zbekiston tarkibiga kiritildi. Joriy yilning 1-apreldan boshlab Nukis shahri Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti etib belgilandi .

2-davr. 1939-yildan 1959-yillar oralig'ini qamrab oladi. Asosan bu davr II-jahon urishi davriga tog'ri keladi. Bunday siyosiy og'ir ahvolda hududimizda shahar maqomini olgan birgina **Taqiyatas (1953-yili) shahri** bo'lib, bu shaharning yuzaga kelishida Taxyatash IESining o'rni kattadir.

Ushbu davrning 1939-yiliga kelip Qoraqalpog'istonning shahar aholisi 57,8 mingga ko'payib, 1926-yilga nisbatan uch barobarga ortdi. Bu davrda shahar aholisining o'rtacha yillik o'sishi 9,9 % ni tashkil etdi, bu Qoraqalpog'istonning demografik tarixidagi eng yuqori o'sish davri edi¹.(7)

1939-1959 yillar oralig'ida Qoraqalpog'iston aholisi 80,9 ming kishiga yetdi, shahar aholisining ulushi esa 27,2 foizni tashkil etdi. Biz ko'rib chiqqan davrda shahar aholisi 2,3 barobarga ko'paydi va uning o'rtacha yillik o'sishi 4,5 foizni tashkil etdi.

Industrializatsiya jarayonining rivojlanishi bilan bog'liq shahar va qishloq aholisining salmog'i orasida sezilarli darajada o'zgarishlar yuz berdi. 1939-1959 yillar oralig'ida qishloq aholisi 46,5 ming kishiga kamayib, yillik o'rtacha minus ko'rsatkichni (-0,6%) ko'rsatti. Bu ayniqsa hozirgi kungacha sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

¹ Ходжаева Г.А., Нуранов М.З., Алланазаров К.Ж., Особенности современной урбанизации Каракалпакстана. Ўзбекистон География Жамияти 22 жилд Тошкент, 2002

1939 yilda Qoraqalpog'istonning shaharlar tarmog'i jami 4 ta shahar va bitta shaharchadan iborat edi. **Nokis shahri** - Qoraqalpog'iston avtonom viloyatining poytaxti sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, sobiq poytaxt- **To'rtko'l shahri**, sobiq **Petro-Aleksandrovske** edi. Shahar bo'linmalarini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan **Qo'ng'irot shaharchasi** qishloq posyolkasiga aylantirildi.

Shahar tarmoqlarining va shahar aholisining sezilarli darajada o'sishi urash yillari va urishdan keyingi davrga xos bo'lib, Qoraqalpog'istonning ishlab chiqarish kuchlarining ko'payishi ham o'sgan industriyalangan davrga to'g'ri keladi.

3-davr. 1959-1990-yillar oralig'ini o'z ichiga olib, Respublikamizda urushdan keyingi yillarda yuz bergen qulay demografik vaziyat aholi sonining ko'payishiga imkon yaratdi. 1959-1970-yillarda Qoraqalpoqistonning qishloq aholisining o'rtacha yillik o'sishi 1,8% ni tashkil etdi. Keyinchalik qishloq aholisining o'sishi yil sayin oshdi, ammo bu ko'rsatkich so'nggi yillarda va hozirgi davrda biroz pasayib yiliga 0,7-0,8% ga teng bo'ldi.

Shahar aholisi 1959-yildan 1970-yilgacha 110,9 ming kishiga yetib, jami aholi ulushidan 35,5 foizni tashkil etdi. Bu davrda yillik o'rtacha ko'rsatkichi 5,5 foizga oshdi.

1979-yilgacha bo'lgan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi shaharlarida 378,5 ming shahar aholisi bo'lgan. Bu 1970-yilga nisbatan 128,9 ming kishiga ko'p ekanligini anglatadi. Shahar aholisi jami aholining 41,9% ni egallagan. Shahar aholisining yillik o'rtacha o'sishi 4,7% ga teng edi. 1979-yildan so'ng bu ko'rsatkich pasayishni boshlagan.

So'nggi hisob-kitoblarga ko'ra, 1979-1989-yillar oralig'ida shahar aholisi 205,2 ming kishiga ko'payib, jami 583,7 ming kishiniashkiletti. Shahar aholisining ulushi jami aholining 48,1 foizini tashkil etdi .

1959-yilda Qoraqalpoqistonda 5 ta shahar va 4 ta shaharcha ro'yhatga olinib, ularda 138,7 ming kishi istiqomat qilgan.

Keyingi yigirma yil ichida (1959 - 1979) Qoraqalpoqiston shaharlari soni ikki baravar ko'paydi va 9 ta shahar, 10 ta shaharchadan iborat 19 ta shahar manzilgohlarini tashkil etdi. Bu davrda respublikadagi shaharlar soni eng faol o'sgan davr bo'ldi. Yangi shaharlardan yirik hududiy ishlab chiqarish komplekslari asosida - Beruniy (1962), Moynaq (1963), Qońirat (1969), tuman markazlari sifatida - Mańǵıt (1973), Xalqabad (1986), Tórtkúl (1973), Shomanay (1983), Bostan (1983)shaharlari paydo bo'ldi[1,35].

Shahar manzilgohlari rivojlanishning bu bosqichida shahar manzilgohlarining yangi kategoriyasi – shaharchalar (shahar tipidagi posyolkalar) paydo bo'lib, keyinchalik shahar nomiga ega bo'ldi.

Qishloq aholisi shaharlarga ko'chib o'tishi natijasida, yirik qishloqlar shahar va shaharchalarga aylantirildi. Ularda sanoat, qurilish, transport va ular bilan bog'liq xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ochilib, ishchi kuchi sifatida jalb qilindi.

Sobiq ittifoq davrida Qoraqalpoqistonning shaharlar tarmog'i tez rivojlandi, bu davrda uning yangi shaharlari soni 10 taga, shaharchalar soni 16 taga yetdi. Shaharlar soni 6 barobar ko'paydi.

Xulosa. O'rganilayotgan hududda aholi yashash manzilgohlari qadim-qadimdan paydo bo'lib rivojlanib kelgan bo'lsa shahar tipidagi manzilgohlar ham har bir davrda o'ziga xos rivojlanib kelgan. Birinchi davrda jami shaharlarning 25%ni (3ta shahar) paydo bo'lган bo'lsa, 2-davr ya'ni, 1939- yildan 1959- yilgacha bo'lган vaqtta 8,3% (1ta shahar), 3- davr ya'ni 1959-1990-yillar oraliǵidagi davrda 66,7% (8 ta shahar) paydo bo'lган va rivojlangan. Shaharlarning genetik kelip chiqishi va genetik funksional tasnifi bo'yicha unchalik ko'p turlarga bo'linmaydi. Shaharlar asosan tuman markazlari, yirik hududiy ishlab chiqarish komplekslari asosida tashkil etilgan va rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Uspenskiy B.A., Strukturnaya tipologiya yazikov, M., 1965;
2. Ковалев, С.А. География населения СССР/ С.А. Ковалев [и д.р.]. – М.: Издательство МГУ, 1980.- 287 с.
3. Лаппо Г.М.География городов. -М ., ВЛАДОС, 1997. Б-39.

4. A.S.Soliyev, S.Tashtayeva, M.Egamberdiyev Shaharlар geografiyasi.-Т.: VNESHINVESTROM, 2019, 39-бет
5. Баранский Н.Н. Экономическая география. Экономическая картография - М.: Географгиз, 1960. - 452 с.
6. Перчик Е.Н. Города мира. География мировой урбанизации. М., 1999. 384 с.
7. Ходжаева Г.А., Нуранов М.З., Алланазаров К.Ж., Особенности современной урбанизации Каракалпакстана Ўзбекистон География Жамияти 22 жилд Тошкент, 2002
8. Ходжаева Г.А., Даuletbaeva Д., Байрамова М. Проблемы формирования городских поселений Республики Каракалпакстан. Вестник Каракалпакского государственного университета, №1., 2020. стр.35-37
9. Khodjaeva G.A., Dauletbaeva D.D., Oteuliev M.O. Formation and development of towns and modern urban processes of Karakalpakstan./ Сборник научных статей «Общественно географические исследования на евразийском пространстве: традиции и инновации», Ташкент, «Zebo print», стр. 2023, 158-169
10. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi maxsus sayti: <https://www.qrstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>